

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-fevraldagi PF-16-sonli farmoni ijrosi to‘g‘risida
MA’LUMOT**

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
1.	12.1-band. 2025-yilda tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash borasida 1 ming km kanallarni beton qoplamaga o‘tkazib, suv tejovchi texnologiyalar qamrovini 1,6 mln. gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo‘shimcha 2,5 mlrd. m³ suvni tejashga erishish bo‘yicha tarmoq jadval ishlab chiqish va tasdiqlash.	2025-yil 25-dekabr	Suv xo‘jaligi vaziri Sh.Xamrayev tomonidan 2025-yil 10-fevral kuni 2025-yilda 1 ming kilometr kanallarni beton qoplamaga o‘tkazib, suv tejovchi texnologiyalar qamrovini 1,6 mln. gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo‘shimcha 2,5 mlrd.³ suvni tejashga erishish bo‘yicha tasdiqlangan tarmoq jadvalida 573,8 km kanallarni betonlash, 21 km lotok va 49,3 km yopiq quvurli sug‘orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 20 ming km ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish bo‘yicha reja-jadvallari tasdiqlangan.
2.	12.2-band. 2025-yilda tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash borasida nasos stansiyalarida eskirgan nasos va elektr dvigatellarni zamonaviy energiya tejamkorlariga almash-tirish, suv resurslari hisobini takomillashtirish orqali nasos stansiyalarining elektr energiya iste’moli 300 mln. kVt. gacha kamaytirilishini ta’minlash.	2025-yil 25-dekabr	2025-yil yanvar-dekabr oylari davomida hududiy nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan 157 ta nasos va 166 ta elektrodvigatellar yangisiga almashtirilgan. Vazirlik tasarrufidagi nasos stansiyalar va tik quduqlarni ishlatish uchun: 2017-yilda 8 342 mln. kVt/soat; 2020-yilda 7 172 mln. kVt/soat; 2024-yilda 6 505 mln. kVt/soat elektr energiyasi sarflangan bo‘lib (2017-yilga nisbatan 22%) kam sarflangan. 2025-yilda nasos stansiyalar va tik quduqlarni ishlatish uchun 6 840 mln. kVt/soat elektr energiyasi limiti belgilanganligi 10-dekabr holatiga 6 208,6 mln. kVt/soat sarflangan. Tasdiqlangan limitga nisbatan 467,2 mln. kVt/soat elektr energiyasi tejallishiga erishilgan.
3.	12.3-band. Irrigasiya va meliorasiya tizimlari obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali 390 ming gektar qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining suv ta’minotini yaxshilash. Irrigasiya va meliorasiya tizimlari obyektlarini qurish va rekonstruksiya	2025-yil 25-dekabr	Hisobot davrida 1864,4 km kanallarni rekonstruksiya qilish va betonlashtirish ishlari bajarilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 20 ming km ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish bo‘yicha reja-jadvallari tasdiqlangan bo‘lib, bu boradagi ishlar to‘liq bajarilgan. Belgilangan jami 879,6 ming gektar maydonda suv tejaydigan texnologiyalar, jumladan, 103,2 ming gektarda tomchilatib, 30,7 ming gektarda yomg‘irlatib, 13,7 ming gektarda diskret sug‘orish texnologiyalari joriy qilingan hamda 123,1 ming

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
	qilish orqali 390 ming gektar qishloq xo'jaligi yer maydonlarining suv ta'minoti yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.		hektar maydonlar egatga plyonka to'shab va egiluvchan quvurlar orqali sug'orilgan, 608,9 ming gektar maydonlarda lazerli tekislash ishlari amalga oshirilgan. Natijada kanallarni betonlashtirish va sug'orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish hamda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish orqali 2025-yilda 460,1 ming/ga qishloq xo'jaligi, 85,2 ming/ga aholi tomorqa yer maydonlarining suv ta'minoti yaxshilanib, sug'orish mavsumida 8,75 mlrd. m³ suv tejalishiga erishilgan.
4.	12.4-band. Sarflanayotgan suvning hisobi va hisoboti to'liq yuritilishini ta'minlash maqsadida magistral kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimi joriy etilishi; Sarflanayotgan suvning hisobi va hisoboti to'liq yuritilishini ta'minlash maqsadida magistral kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimini joriy etish bo'yicha dastur ishlab chiqish va tasdiqlash.	2026-yil 25-iyun	Daryolar, magistral kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimini joriy etish yuzasidan vazirlik tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Jumladan: sohada mavjud barcha axborot tizimlarini umumlashtirgan holda tahlil qilish imkoniyatini beruvchi "Raqamli suv xo'jaligi" yagona platformasini yaratish ishlari boshlanib, bugungi kunda "Vaziyatlar markazi" tashkil etilgan; sohani raqamlashtirish uchun respublika byudjetidan ajratilgan va bugungi kunga qadar ishlatilmagan 50,7 mlrd. so'm mablag'ni asosiy suv manbalaridan respublika chegarasida olinayotgan suv sarfini real vaqt rejimida aniqlash imkonini beruvchi qurilmalar o'rnatish hamda avtomatlashtirish va boshqa ishlarga yo'naltirishga ruxsat berilishini so'rab Prezident Administrasiyasiga axborot xati kiritilgan. Prezident Administrasiyasining topshirig'i (8.08.2025-y. 02-RA 1/1-2392/5-son)ga asosan ushbu axborot xatida ko'rsatilgan takliflarga rozilik olinib, bugungi kunda ushbu qurilmalarni xarid qilish va kelgusi yil yakuniga qadar ishga tushirish yuzasidan ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigasiya sektorini rivojlantirishning 2025–2028-yillarga mo'ljallangan dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-250-sonli qarorining 1-ilovasiga asosan tasdiqlangan dasturning 1.4-bandida: Respublikada suv sarfi hisobi va hisobotining to'liq yuritilishini ta'minlash maqsadida muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimini joriy etish. Bunda 2026-yil yakuniga qadar Davlat chegarasida olinayotgan suv miqdorini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini yaratuvchi kamida 300 ta raqamli suv o'lchash qurilmasini o'rnatish hamda markazlashgan ma'lumotlar bazasiga integrasiya qilish belgilangan. Shuningdek, Prezident Administrasiyasi rahbarining topshirig'i (30.08.2025-y. 02-1418-son)ga ko'ra, tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 3-bandida: barcha gidropostlarda onlayn suv kuzatuv to'rt bosqichda yo'lga qo'yish, bunda

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
			1-bosqichda – 322 ta transchegaraviy va 28 ta viloyatlararo nuqtalarga o‘rnatish va 2026-yil mart oyidan boshlab tender savdolarini e‘lon qilish ko‘rsatib o‘tilgan.
5.	7-ilova 1-band. Hududlarda suvni tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilishni jadallashtirish. Suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha talabgorlar kesimida manzilli ro‘yxatlarni tasdiqlash.	2025-yil fevral oyidan boshlab yil davomida	Respublika bo‘yicha jami 767 328 gektar maydonda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha talabgorlar kesimida manzilli ro‘yxatlar ishlab chiqilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va barcha viloyat hokimliklari bilan kelishilgan holda tasdiqlangan. Ushbu manzilli ro‘yxatga asosan Respublika bo‘yicha 74 680 gektarda tomchilatib, 35 303 gektarda yomg‘irlatib, 27 500 gektarda diskret, 84 000 gektarda egiluvchan quvurlar, 10 000 gektarda egatga plyonka to‘shab sug‘orish va 535 845 gektarda lazerli tekislash rejalashtirilgan.
6.	7-ilova 1.2-band. Hududlarda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilishni jadallashtirish. Tasdiqlangan manzilli ro‘yxatlarga asosan talabgor va pudrat korxonalari o‘rtasida “suvkredit.uz” platformasi orqali shartnomalar rasmiylashtirish va moliyalashtirishni amalga oshirish.	2025-yil fevral oyidan boshlab yil davomida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qaroriga muvofiq, 2024-yildan boshlab suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga “suvkredit.uz” platformasi orqali 5-yil muddatga shundan, 2-yillik imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada kreditlar ajratilishi yo‘lga qo‘yilgan. Hududlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan “suvkredit.uz” platformasi orqali qishloq xo‘jalik mahsulotlari etishtiruvchilari va quruvchi pudrat korxonalari o‘rtasida onlayn pudrat shartnomalari rasmiylashtirilib, 40,8 ming gektarda suv tejaydigan texnologiyalar hamda 214,2 ming gektar maydonlarga lazer uskunasi yordamida tekislash uchun “Agrobank” ATB tomonidan imtiyozli kredit mablag‘lari ajratilgan.
7.	7-ilova 1.3-band. Hududlarda suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilishni jadallashtirish. Pudrat shartnomalarida belgilangan muddatlarda qurilish-montaj ishlarini yakunlash choralari ko‘rish.	2025-yil fevral oyidan boshlab yil davomida	2025-yilda respublika bo‘yicha faoliyat olib borayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtiruvchilari va quruvchi pudrat korxonalari o‘rtasida “suvkredit.uz” platformasi orqali onlayn pudrat shartnomalari rasmiylashtirildi va 40,8 ming gektarda suv tejaydigan texnologiyalar hamda 214,2 ming gektar maydonlarga lazer uskunasi yordamida tekislash uchun “Agrobank” ATB tomonidan imtiyozli kredit mablag‘lari ajratilishi choralari ko‘rilgan. O‘z navbatida, mutaxassislar tomonidan hududlarda pudrat shartnomasida shartlari va loyixa hujjatlari asosida texnologiyani joriy kilish ishlarining narxi anik bo‘lib, “Buyurtmachi” tomonidan 50% bo‘nak (avans) mablag‘i to‘lab berilgandan so‘ng, “Pudratchi” shartnoma shartlarini bajarishga kirishadi va 45 kun muddatda yoki tomchilab sug‘orish xamda diskret sugorish texnologiyalari o‘rnatish uchun hosil yilining 25-may kundan, yomg‘irlatib sugorish texnologiyalarinp o‘rnatish uchun hosil yilining 10 apreldan kechiktirmasdan qurilish ishlarini to‘liq yakunlanishi bo‘yicha

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
			chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan amaliy yordam ko'rsatilgan. Natijada jami 879,6 ming/ga maydonda suv tejovchi texnologiyalar, jumladan, 103,2 ming/ga. da tomchilatib sug'orish, shundan 83 ming/ga paxta, 20,2 ming/ga boshqa ekinlar, 30,7 ming/ga. da yomg'irlatib, 13,7 ming/ga. da diskret sug'orish texnologiyalari joriy qilingan hamda 123,1 ming/ga maydonlar egatga plyonka to'shab va egiluvchan quvurlar orqali sug'orilgan, 608,9 ming/ga maydonda lazerli tekislash ishlari amalga oshirilgan.
8.	7-ilova 2-band. Mahalliy korxonalarning suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish. Suv tejovchi texnologiyalarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni inobatga olgan holda mahalliy korxonalarning yillik quvvatini kamida 300 ming gektarga yetkazish.	2025-yil fevral oyidan boshlab yil davomida	Mahalliy korxonalarning suv tejovchi texnologiyalarning butlovchi qismlarini ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish maqsadida bir qator engillik va imtiyozlar berilish natijasida bugungi kunda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning soni 60 tani tashkil etib, mahalliyashtirish darajasi 80 foizga, yillik ishlab chiqarish quvvati esa 300 ming gektarga yetkazilgan. Shundan, 44 ta korxona tomonidan tomizg'ichli shlanglar va har xil turdagi polietilen quvurlar hamda fittinglar, 10 ta korxonalar tomonidan filtrlash qurilmalari va nasos agregatlari, 6 ta korxonalar tomonidan geomembrana hamda geotekstil mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Mahalliy ishlab chiqarish sanoati kengayishi natijasida hududlarda o'tgan yillarda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilingan maydonlarda foydalanilgan bir yillik tomizg'ichli shlanglarni utilizasiya qilish hamda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlarga servis xizmat ko'rsatish markazlari va savdo shoxobchalari tashkil qilingan. Butlovchi qismlarning tannarxini xorijdan tashish xarajatlarini tejash hisobiga 15–20 foizgacha pasaytirish yoki gektariga 5–7 mln. so'mga arzonlashtirish, import o'rnini bosuvchi sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ichki bozor to'liq ta'minlanib, qo'shni davlatlarga eksport qilish imkoni yaratilgan.
9.	7-ilova 3-band. Kanallarda suv yo'qotilishining oldini olish bo'yicha zamonaviy va samarali yondashuvlarni joriy qilish. Kanallarni betonlashtirish bilan birga mazkur maqsadlarda uzoq muddatga chidamli plyonkadan foydalanish	2025-yil aprel	Loyiha doirasida kanallarni betonlashtirish bilan birga uzoq muddatga chidamli plenkadan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Irrigasiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari Qarshi tumani Qovchin mahallasi hududidagi R-19 xo'jaliklararo sug'orish kanalining 500 metr tajriba uchastkada har 100 metrlik bo'lakda zamonaviy filtrasiyaga qarshi qoplamalar sinovdan o'tkazilgan.

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
	amaliyotini ham yo'lga qo'yish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.		Geomembrana, bazaltlik geosetka, uzoq muddatga chidamli plenka, bazaltlik kompozit lotok va quvurlar, bazaltlik fibra qo'shilgan beton qoplamalarni ishonchliligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Kanallarda suv yo'qotilishining oldini olish bo'yicha zamonaviy va samarali yondashuvlar bo'yicha ilmiy asoslangan Qarshi tumanidagi kanalga filtrasiyaga qarshi ekspremental qoplamalar o'rnatish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan: – HDPE membrana; – Beton polotno; – Bazalt geoto'r; – Bazalt kompozit lotoklar va quvurlar (DN 300 mm); – Bazalt tolasi qo'shilgan beton.
10.	7-ilova 7.1-band. Meliorasiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali sug'oriladigan erlarda sho'rlangan maydonlarni 26 ming gektargacha kamaytirish. Meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha yillik dasturni tasdiqlash va ijrosini ta'minlash.	2025-yil fevral oyidan boshlab yil davomida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "2023–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–465-sonli qaroriga asosan 449,3 km meliorasiya obyektlarida qurish va rekonstruksiya qilish ishlari belgilangan. Joriy yilda manzilli dasturga kiritilgan 41 ta obyekt doirasida jami 501,6 km (rejaga nisbatan 111,6%) meliorasiya obyektlari, shundan, 378,2 km kollektorlar va 123,4 km yopiq-yotiq drenaj tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarilgan. Ushbu tadbirlar natijasida, joriy yilda respublikaning turli hududlarida jami sug'oriladigan erlarda yer osti suv sathi muammoli holatda bo'lgan yer maydonlarining 744 ming/ga yoki o'tgan yilga nisbatan 75 ming/ga, sho'rlangan maydonlar ulushi 1 833 ming/ga. ni tashkil etib, sho'rlangan maydonlar 49 ming/ga. ga kamayishiga erishilgan.
11.	7-ilova 7.2-band. Meliorasiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali sug'oriladigan erlarda sho'rlangan maydonlarni 26 ming gektargacha kamaytirish. Sho'r yuvish texnologiyalariga rioya qilgan holda erlarni lazerli tekislash, tuproqlarni chuqur yumshatish kabi ishlarni amalga oshirish.	2025-yil fevral oyidan boshlab yil davomida dasturga muvofiq	2024–2025-yillar kuz-qish davrida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda ekin maydonlari kesimida sho'rlanish darajasi va sho'r yuvish tadbirlarini o'tkazish grafiklari ishlab chiqilib, 739,2 ming gektar sho'r yuvish ishlari amalga oshirilgan. Hududiy meliorativ ekspeditsiyalar tomonidan sho'r yuvish tadbirlarini sifatli o'tqazish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqib, har bir klaster va fermer xo'jaliklariga yetkazilib, respublika, viloyat va tumanlar kesimida ko'rgazmali ilmiy-amaliy seminarlar tashkil qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 2025-yil davomida jami 535,8 ming gektar maydonda lazerli yer tekislash ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda 608,9 ming gektar (rejaga nisbatan 114%) maydonlarda ushbu tadbirlar

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
			Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar natijasida, joriy yilda respublikaning turli hududlarida jami sug‘oriladigan erlarda yer osti suv sathi muammoli holatda bo‘lgan yer maydonlari 744 ming gektar yoki o‘tgan yilga nisbatan 75 ming gektarga, sho‘rlangan maydonlar ulushini 1 833 ming gektarni tashkil etib, sho‘rlangan maydonlar 49 ming gektarga kamayishiga erishilgan.
12.	7-ilova 8.1-band. Suv xo‘jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish. Avtomatlashtiriladigan suv xo‘jaligi obyektlari ro‘yxatini shakllantirish.	2025-yil fevral	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 2025-yilda avtomatlashtiriladigan suv xo‘jaligi obyektlari ro‘yxati shakllantirilgan. Ro‘yxatga asosan respublika bo‘yicha jami 13 ta suv xo‘jaligi obyektlarini avtomatlashtirish rejalashtirilgan: – Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1 ta; – Andijon viloyatida 1 ta; – Buxoro viloyatida 1 ta; – Jizzax viloyatida 1 ta; – Qashqadaryo viloyatida 1 ta; – Navoiy viloyatida 1 ta; – Samarqand viloyatida 1 ta; – Surxondaryo viloyatida 1 ta; – Sirdaryo viloyatida 1 ta; – Xorazm viloyatida 4 ta. Ma’lumot uchun: Amalga oshirilgan ishlar haqida vazirlikning (19.02.2025-y. 02/24-174-son) xati orqali Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligiga axborot taqdim qilingan.
13.	7-ilova 8.2-band. Suv xo‘jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish. Obyektlar bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, davlat ekspertizasidan o‘tkazish va tender savdolarini amalga oshirish.	2025-yil may	2025-yilda 12 ta yirik suv xo‘jaligi obyektlarini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga o‘tkazish belgilangan. Belgilangan reja ko‘rsatkichlarga asosan joriy yilning I choragida Samarqand viloyatida 1 ta (“Qozoqband” suv taqsimlash inshooti), Jizzax viloyatida 2 ta (DM-1 kanalining PK-399+00 qismidagi inshoot va Sangzor daryosidagi 1-sonli suv taqsimlash inshooti) obyekt avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga o‘tkazilgan. Shuningdek, 2025-yilga belgilangan reja ko‘rsatkichni to‘liq bajarish uchun talab etiladigan 9 ta (Andijon viloyatida 1 ta, Xorazm viloyatida 4 ta va Farg‘ona viloyatida

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
			4 ta) obyektning loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan hamda davlat ekspertizasidan o'tkazilib, pudratchi tashkilotlar aniqlangan. Xorazm viloyatidagi 4 ta yirik suv xo'jaligi obyektini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga o'tkazish ishlari Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining bayoni (27.09. 2024 y. 102-son)ga asosan irrigasiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish loyihalari tarkibiga kiritilgan.
14.	7-ilova 8.3-band. Suv xo'jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish. Obyektlarda qurilish-montaj ishlarini yakunlash.	2025-yil dekabr	Hisobot davrida 16 ta suv xo'jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga o'tkazilgan. Jumladan, Andijon viloyatida 1 ta ("Qo'shariq" gidrouzeli), Jizzax viloyatida 2 ta (DM-1 kanalidagi gidrotexnik inshoot va Sangzor daryosidagi 1-sonli suv taqsimlash inshooti), Samarqand viloyatidagi 1 ta ("Qozoqband" suv taqsimlash inshooti), Farg'ona viloyatida 8 ta (Janubiy Farg'ona magistral kanalidagi "Qumtepa", "Bo'zaxo'r", "Bo'ston" va "O'zbekiston" gidroinshootlari, "Olmazor" suv taqsimlash inshootlari, KAK to'yintiruvchi kanalidagi bosh inshooti, Yakkatut-1-2 va Zilxa-2 suv taqsimlash inshootlari), Xorazm viloyatida 4 ta ("Qo'riqtom-1" kanalidagi suv tusuvchi inshooti, "Do'stlik yab", "Eski Xonobod" va "Qo'riqtom" kanallaridagi bosh suv olish inshootlari) obyektida qurilish-montaj ishlari yakunlangan.
15.	7-ilova 9-band. Irrigasiya sohasiga xususiy sektorni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklikni keng joriy qilish hisobiga xususiy investisiyalar oqimini ko'paytirish. Suv xo'jaligi vazirligining tizim tashkilotlari hisobidagi 200 ta nasos stansiyasini DXSh asosida boshqaruvga berish choralarini ko'rish orqali elektr energiyasi iste'molini 30 foizgacha kamaytirish.	2026-yil 25-noyabr	Vazirlik tomonidan joriy yilda 200 ta nasos stansiyani DXSh shartlari asosida boshqaruvga berish bo'yicha tayyorlangan loyiha hujjatlari Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli xulosa olish uchun taqdim etilib, ijobiy xulosalar olingan. Shundan, 34 ta nasos stansiya bo'yicha xususiy sherik bilan bitimlar imzolanib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda reestrda kiritilgan. Shuningdek, 50 ta nasos stansiyasini DXSh shartlari asosida xususiy sektor boshqaruviga berish bo'yicha bitimlar imzolanib, reestrda o'tkazish uchun vazirlikning xati (31.07.2025-y. 05/16-4231-son) bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilgan. Prezident Administrasiyasining topshirig'i (30.08.2025-y. 02-1418-son) bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 9.3-bandiga ko'ra, 2025-yil yakuniga qadar yangi DXSh bitimlarini tuzish taqiqlangan. Prezident Administrasiyasining topshirig'i (17.11.2025-y. 02-RA, 1-18331-son)ga muvofiq, ushbu bandning ijro muddati 2026-yil 25-noyabrga qadar uzaytirishga ruxsat berilgan.

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
16.	7-ilova 11.1-band. Nasos stansiyalarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va energiya iste'molini kamaytirish. Eskirgan 150 ta nasoslarni zamonaviy energotejamkor turlariga almashtirish va 6,8 mln. kVt/soat elektr energiya tejalishiga erishish.	2025-yil 25-dekabr	Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yil yanvar-dekabr oylari davomida hududiy nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan 157 ta nasos va 166 ta elektrodvigatel yangisiga almashtirilgan. Vazirlik tasarrufidagi nasos stansiyalar va tik quduqlarni ishlatish uchun: 2017-yilda: 8 342 mln. kVt/soat, 2020-yilda 7 172 mln. kVt/soat va 2024-yilda 6 505 mln. kVt/soat elektr energiyasi sarflangan bo'lib, 2017-yilga nisbatan 22% kam sarflangan. 2025-yilda nasos stansiyalar va tik quduqlarni ishlatish uchun 6 840 mln. kVt/soat elektr energiyasi limiti belgilanganligi 10-dekabr holatiga 6 208,6 mln. kVt/soat sarflangan. Tasdiqlangan limitga nisbatan 467,2 mln. kVt/soat elektr energiyasi tejalishiga erishilgan.
17.	7-ilova 11.2-band. Nasos stansiyalarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va energiya iste'molini kamaytirish. Energiya tejamkor qurilmalar o'rnatish va modernizasiya qilish orqali nasos stansiyalarining yillik elektr energiya iste'molini 6,8 mlrd. kVt. dan oshirmaslik choralari ko'rish.	2025-yil 25-dekabr	2025-yilda nasos stansiyalari va tik quduqlarga 6,8 mlrd. kVt/soat elektr energiyasi ajratilgan. 2025-yilda suv xo'jaligida "Nasoslar samaradorligini oshirish yili" deb e'lon qilingan bo'lib, 2025-yil 10-dekabr holatiga amalda 5,8 mlrd. kVt/soat sarflangan hamda tasdiqlangan limitga nisbatan 100 mln. kVt/soat elektr energiyasi tejalishiga erishilgan.
18.	8-ilova 1-band. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigasiya sektorini rivojlantirishning 2025–2027-yillarga mo'ljallangan strate-giyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasini tayyorlash va tasdiqqa kiritish.	2025-yil 25-mart	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigasiya sektorini rivojlantirishning 2025–2027-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan.
19.	9-ilova 1-band. Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan	2025-yil davomida	Respublika bo'yicha 2025-yilda jami 500 ming gektar maydonda suv tejavchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha manzilli ro'yxatlar ishlab chiqilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va barcha viloyat hokimliklari bilan kelishilgan holda tasdiqlangan.

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
	erlarning umumiy maydonini 2 mln. gektargacha yetkazish.		Hisobot davriga qadar “suvkredit.uz” platformasiga talabgor-larning maydonlari uchun ariza topshirish ishlariga ko‘maklashilib, “Suv yetkazib berish xizmati” DMLar tomonidan ijobiy xulosalar berilishi ta’minlangan.
20.	9-ilova 2-band. Tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug‘orish tarmoqlarini yopiq quvurli sug‘orish tizimlariga o‘tkazish bo‘yicha etti yillik dastur doirasida irrigasiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffisienti ko‘rsatkichini 0,73 gacha yetkazish.	2025-yil dekabr	Kapital qo‘yilmalar hisobidan joriy yilda 553,3 km kanallar, 29,4 km lotok va 49,1 km yopiq sug‘orish tarmoqlarida qurish, rekonstruksiya qilish va betonlashtirish ishlari bajarilgan. Shuningdek, Prezident Administratsiyasi topshirig‘iga muvofiq 2024-yil oktabrdan 2025-yilning aprel oyiga qadar fermer-klastarlar hisobidagi 4 641 km xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlari; Tumanlar “Suv yetkazib berish xizmati” DM hisobidagi ikki va undan ortiq iste’molchiga xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarining 1 413 km qismi betonlangan.
21.	9-ilova 3-band. Suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning yillik quvvatini 300 ming gektarga yetkazish.	2025-yil davomida	Mahalliy korxonalarning suv tejovchi texnologiyalarning butlovchi qismlarini ishlab chiqarish quvvatlari oshirilishini qo‘llab-quvvatlash hamda yaratilgan engillik va imtiyoz natijasida bugungi kunga kelib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning soni 60 tani tashkil etadi. Mahalliy korxonalardan 44 tasi tomizg‘ichli shlanglar va har xil turdagi polietilen quvurlar hamda fittinglar ishlab chiqaruvchi korxonalar, 10 tasi filtrlash qurilmalari va nasos agregatlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, 6 tasi geomembrana hamda geotekstil mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar hisoblanadi (“Tomchi” mobil ilovasida bu to‘g‘risida sahifa mavjud). Shuningdek, korxonalarning joriy yil IV choragiga kelib mahalliy ishlab chiqarish quvvati 300 ming/ga. ga yetkazilgan. Mahalliy ishlab chiqarish sanoati kengayishi zamirida hududlarda o‘tgan yillarda tomchilatib sug‘orish texnologiyasi joriy qilingan maydonlarda foydalanilgan bir yillik tomizg‘ichli shlanglarni utilizasiya qilish hamda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlarga servis xizmat ko‘rsatish markazlari va savdo shoxobchalari tashkil qilingan.
22.	9-ilova 4-band. Meliorasiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug‘oriladigan yer maydonlarida	2025-yil davomida	Joriy yilda manzilli dasturga kiritilgan 41 ta obyekt doirasida jami 501,6 km (rejaga nisbatan 111,6%) meliorasiya obyektlari, shundan, 378,2 km kollektorlar va 123,4 km yopiq-yotiq drenaj tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarilgan. Shuningdek, 2024–2025-yillar kuz-qish davrida barcha viloyat va tumanlardagiekin maydonlari kesimida sho‘rlanish darajasi hamda sho‘r yuvish tadbirlarini o‘tkazishgrafiklari ishlab chiqildi. Ushbu grafiklar asosida 739,2 ming/ga maydonda

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
	sho'rlangan maydonlarni 1,7 mln. gektargacha kamaytirish.		sho'r yuvish ishlari, shuningdek, 1 535,6 ming/ga g'alla maydonlarida bostirib sug'orish tadbirlarini amalga oshirish natijasida sho'rlanish darajasining kamayishiga erishilmoqda. Hududiy Meliorativ ekspeditsiyalar tomonidan sho'r yuvish tadbirlarini sifatli o'tqazish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqib, har bir klaster va fermer xo'jaliklariga yetkazilib, respublika, viloyat va tumanlar kesimida ko'rgazmali ilmiy-amaliy seminarlar tashkil qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 2025-yil davomida jami 535,8 ming/ga maydonda lazerli yer tekislash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda 608,9 ming/ga (114%) maydonlarda ushbu tadbirlar Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Natijada joriy yilda sho'rlangan maydonlar 48 ming/ga, kuchli va o'rta sho'rlangan maydonlar 62,5 ming/ga, yer osti suvi yuqori bo'lgan maydonlar esa 75,4 ming/ga. ga qisqarib, belgilangan prognoz ko'rsatkichlar to'liq bajarilgan.
23.	9-ilova 5-band. Kuchli va o'rta sho'rlangan sug'oriladigan yer maydonlarini 430 ming gacha, yer osti suv sathi muammoli holatda bo'lgan yer maydonlarini 773,4 ming gacha kamaytirish.	2025-yil davomida	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 2025-yil davomida jami 535,8 ming/ga maydonda lazerli yer tekislash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda 608,9 ming/ga (114%) maydonda amalga oshirilgan. Natijada joriy yilda sho'rlangan maydonlar 48 ming/ga, kuchli va o'rta sho'rlangan maydonlar 62,5 ming/ga, yer osti suvi yuqori bo'lgan maydonlar esa 75,4 ming/ga. ga qisqarib, belgilangan prognoz ko'rsatkichlar to'liq bajarilgan.
24.	9-ilova 6-band. Tuproq o'zanli bo'lgan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 46 foizga yetkazish.	2025-yil davomida	Suv xo'jaligi vazirligining tizim tashkilotlari hisobida jami 28 736 km magistral va xo'jaliklararo kanallar mavjud bo'lib, shundan, 17 812 km (62%) tuproq o'zanli, 10 924 km (38%) beton qoplamali kanallardir. Joriy yilda manzilli dasturga kiritilgan 77 ta obyekt doirasida jami 592,1 km, shundan, 562,7 km kanallar, 29,4 km lotok tarmoqlarini betonlashtirish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami beton qoplamali kanallar uzunligi 11 516,5 km (40%)ga yetkazilgan.
25.	9-ilova 7-band. Kamida 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish.	2025-yil davomida	Hisobot davrida 16 ta suv xo'jaligi obyektida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga o'tkazilgan. Andijon viloyatida 1 ta ("Qo'shariat" gidrouzeli), Jizzax viloyatida 2 ta (DM-1 kanalidagi gidrotexnik inshoot va Sangzor daryosidagi 1-sonli suv taqsimlash inshooti), Samarqand viloyatidagi 1 ta ("Qozoqband" suv taqsimlash inshooti), Farg'ona viloyatida 8 ta (Janubiy Farg'ona magistral kanalidagi "Qumtepa", "Bo'zaxo'r",

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
			“Bo‘ston” va “O‘zbekiston” gidroinshootlari, “Olmazor” suv taqsimlash inshootlari, KAK to‘yintiruvchi kanalidagi bosh inshooti, Yakkatut-1-2 va Zilxa-2 suv taqsimlash inshootlari), Xorazm viloyatida 4 ta (“Qo‘riqtom-1” kanalidagi suv tusuvchi inshooti, “Do‘stlik yab”, “Eski Xonobod” va “Qo‘riqtom” kanallaridagi bosh suv olish inshootlari) obyektda qurilish-montaj ishlari yakunlangan.
26.	9-ilova 8-band. Nasos stansiyalaridagi eskirgan 1 069 ta nasoslarni energiya tejamkorlariga almashtirish.	2025-yil davomida	Vazirlik tasarrufidagi nasos stansiyalardagi eskirgan 150 ta nasoslar hamda 166 ta elektrodvigatellarni energotejamkorlariga almashtirish belgilangan bo‘lib, amalda joriy yil davomida Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan 157 ta yangi energiya tejamkor nasoslarga almashtirilgan. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 29 ta, Andijon viloyatida 3 ta, Buxoro viloyatida 15 ta, Jizzax viloyatida 7 ta, Qashqadaryo viloyatida 9 ta, Navoiy viloyatida 6 ta, Namangan viloyatida 25 ta, Samarqand viloyatida 12 ta, Sirdaryo viloyatida 5 ta, Surxondaryo viloyatida 17 ta, Toshkent viloyatida 9 ta, Farg‘ona viloyatida 6 ta, Xorazm viloyatida 14 ta.
27.	9-ilova 9-band. Nasos stansiyalaridagi eskirgan 1079 ta elektrodvigatellarni energiya tejamkorlariga almashtirish.	2025-yil davomida	Joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan 166 ta energiya tejamkorlar elektrodvigatellar yangisiga almashtirilgan. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 19 ta, Andijon viloyatida 9 ta, Buxoro viloyatida 5 ta, Jizzax viloyatida 5 ta, Qashqadaryo viloyatida 8 ta, Navoiy viloyatida 8 ta, Namangan viloyatida 28 ta, Samarqand viloyatida 17 ta, Sirdaryo viloyatida 4 ta, Surxondaryo viloyatida 18 ta, Toshkent viloyatida 12 ta, Farg‘ona viloyatida 15 ta, Xorazm viloyatida 18 ta.
28.	9-ilova 10-band. Energiya tejamkor qurilmalar o‘rnatish, nasos stansiyalarini modernizasiya qilish, ularning yillik elektr energiyasi iste‘molini 30 foizga kamaytirish.	2025-yil davomida	Vazirlik tasarrufidagi nasos stansiyalardagi eskirgan 150 ta nasos hamda 166 ta elektrodvigatellarni energotejamkorlariga almashtirish belgilangan bo‘lib, amalda joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan 157 ta nasos hamda 166 ta elektrodvigatellar yangisiga almashtirilgan. Natijada 2025-yilda nasos stansiyalar va tik quduqlarni ishlatish uchun 6 840 mln. kVt/soat elektr energiyasi limiti belgilangan bo‘lib, 10-dekabr holatiga amalda 5 860 mln. kVt/soat sarflangan hamda tasdiqlangan limitga nisbatan 100 mln. kVt/soat elektr energiyasi tejallishiga erishilgan.
29.	16-ilova 10.1-band. Suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2025-yil dekabr	Soliq qo‘mitasi bilan integrasiya qilingan holda foydalanuvchilarning suv iste‘moli to‘g‘risidagi shartnomalari tuzish hamda har oyning yakuni bilan suvdan foydalanganlik bo‘yicha dalolatnomalar tizimning o‘zida shakllantirib shaffof tarzda elektron monitoring qilib borilmoqda.

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
	Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvlarni hisobga olish va monitoring qilish tizimini takomillashtirish.		2025-yil 22-sentabrda boshlab zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan "Vaziyatlar markazi" ishga tushirilgan, sohada mavjud barcha axborot tizimlari ma'lumotlarini yig'ish, umumlashtirish va tahlil qilish imkonini beruvchi "Raqamli suv xo'jaligi" yagona platformasi yaratilgan.
30.	16-ilova 10.2-band. Suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. Suv tejoychi texnologiyalarini joriy qilish.	2025-yil dekabr	Respublika bo'yicha jami 767 328 gektar maydonda suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha talabgorlar kesimida manzilli ro'yxatlar ishlab chiqilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va barcha viloyat hokimliklari bilan kelishilgan holda tasdiqlangan. Ushbu manzilli ro'yxatga asosan Respublika bo'yicha 74 680 gektarda tomchilatib, 35 303 gektarda yomg'irlatib, 27 500 gektarda diskret, 84 000 gektarda egiluvchan quvurlar, 10 000 gektarda egatga plyonka to'shab sug'orish va 535 845 gektarda lazerli tekislash rejalashtirilgan. Hisobot davriga qadar 879,6 ming gektar maydonda suv tejaydigan texnologiyalar, jumladan, 103,2 ming gektarda tomchilatib, 30,7 ming gektarda yomg'irlatib, 13,7 ming gektarda diskret sug'orish texnologiyalari joriy qilingan hamda 123,1 ming gektar maydonlar egatga plyonka to'shab va egiluvchan quvurlar orqali sug'orilgan, 608,9 ming gektar maydonlarda lazerli tekislash ishlari amalga oshirilgan.
31.	16-ilova 10.3-band. Suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish. Tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga o'tkazish hamda yopiq quvurli sug'orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali irrigasiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffisienti ko'rsatkichini 0,68 gacha yetkazish.	2025-yil dekabr	Irrigasiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffisientini 0,68 ga yetkazish yuzasidan quyidagi tadbirlar amalga oshirilgan. Suv yo'qotilishining asosiy qismi tuproq o'zanli kanallarda kuzatilayotganligi sababli respublikadagi tuproq o'zanli sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish orqali kanallarning foydali ish koeffisientini oshirishga qaratilgan tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, kapital qo'yilmalar hisobidan joriy yilda 553,3 km kanallar, 29,4 km lotok va 49,1 km yopiq sug'orish tarmoqlarida qurish, rekonstruksiya qilish va betonlashtirish ishlari bajarilgan. Shuningdek, Prezident Administrasiyasi topshirig'iga muvofiq fermer-klasterlar hisobidagi 4 641 km xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlari; 2024-yilning kuz va 2025-yilning bahor mavsumida klaster va fermer xo'jaliklari hisobidagi 19,4 ming km uzunlikdagi xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlari; tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" DM hisobidagi ikki va undan ortiq iste'molchiga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarining 1 413 km qismi betonlangan.
32.	16-ilova 11.1-band.	2025-yil fevral	Kollektor-drenaj tarmoqlaridagi suvlari sifatining monitoringini olib borish bo'yicha yillik dastur ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Mazkur dastur rejasida:

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
	Kollektor-drenaj tarmoqlari-dagi suvlari sifatining monitoringini olib borish. Monitoringning yillik dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.		kollektor drenaj-tarmoqlari va kuzatuv quduqlarining sizot suvlar sathi va mineralizatsiyasini tahlil qilish; meliorasiya sohasidagi hisobotlarni shakllantirish; kollektor-drenaj tarmoqlaridagi suvlari sifatining monitoringini olib borish; “DIVER” qurilmalarini oʻrnatish va ishchi holatda saqlash hamda maʼlumotlar uzatilishini taʼminlash; meliorasiya axborot tizimi dasturi (MIS)ga maʼlumotlarni kiritganligini nazorat qilish belgilangan.
33.	16-ilova 11.2-band. Kollektor-drenaj tarmoq-laridagi suvlari sifatining monitoringini olib borish. Dala tadqiqotlarini tashkil etish va kollektor-drenaj tarmoqlari suvidan namunalar olish.	2025-yil mart-noyabr	Vazirlik tomonidan 2025-yil 17-fevralda “Kollektor-drenaj tarmoqlaridagi suvlar sifati monitoringini olib borishni samarali tashkil etish toʻgʻrisida” yillik dastur rejasi tasdiqlangan. Dasturga muvofiq, respublikadagi erlarning meliorativ holatini baholash, shuningdek, drenaj tizimlari faoliyati samaradorligini aniqlash maqsadida dala tadqiqotlari tashkil etilgan. Tadqiqotlar davomida 97 ta asosiy kollektor-drenaj tarmoqlarida suv namunalarini olish ishlari bajarilgan, suv chiqish miqdori, minerallashuv darajasi va boshqa asosiy koʻrsatkichlar oʻrganilgan.
34.	16-ilova 11.3-band. Kollektor-drenaj tarmoq-laridagi suvlari sifatining monitoringini olib borish. Namunalarni tahlil qilish va olingan natijalarni baholash, meliorativ kadastrni ishlab chiqish.	2026-yil yanvar	2025-yil davomida erlarning meliorativ holatini baholash hamda kollektor-drenaj tarmoqlari faoliyati samaradorligini aniqlash maqsadida dala tadqiqotlari tashkil etilgan. Tadqiqotlar doirasida respublika hududidagi asosiy kollektor-drenaj tarmoqlarida suv namunalari olinib, ular laboratoriya sharoitida tahlil qilingan. Tahlillar natijasida suv chiqish miqdori, minerallashuv darajasi va boshqa asosiy koʻrsatkichlar oʻrganilib, olingan maʼlumotlar asosida tahliliy hisobotlar tayyorlangan. Mazkur tahlillar yakunlari boʻyicha tahliliy hisobotlar va jadval materiallari shakllantirilgan. Shuningdek, meliorativ kadastrning asosiy koʻrsatkichlari hisoblangan sugʻoriladigan erlarda sizot suvlari sathi va minerallashuvi hamda tuproq shoʻrlanishi boʻyicha muntazam monitoring olib borilgan. Olingan maʼlumotlar, jumladan, asosiy kollektorlar tarmoqlarining suv-tuz balansi hamda kollektor-drenaj suvlaridan qayta foydalanish koʻrsatkichlari asosida sizot suvlari sathi va tuproq shoʻrlanishi kartalari shakllantirilib, tegishli vazirlik va idoralarga amaliy foydalanish maqsadida taqdim etilgan.

T/r	Farmonga asosan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (erishilgan barcha ijobiy yutuqlar)
35.	16-ilova 11.4-band. Kollektor-drenaj tarmoq-laridagi suvlari sifatining monitoringini olib borish. Mahalliy davlat hokimiyati organlariga, manfaatdor vazirlik va idoralarga ma'lumotlarni belgilangan tartibda taqdim etish.	2026-yil 25-yun	Topshiriqqa muvofiq, kollektor-drenaj tarmoqlari suvlari hamda yer osti suvlari sathi va ularning minerallashuv darajasi to'g'risidagi har choraklik hisobotlar Qishloq xo'jaligi vazirligi, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, Qoraqlpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklariga taqdim qilib borilmoqda. Ushbu hisobotda quyidagilar inobatga olingan: – Respublikadagi asosiy kollektorlardan chiqqan suv miqdori va mineralizatsiyasi; – Qoraqlpog'iston Respublikasi va viloyatlarda sug'oriladigan maydonlarga sug'orish orqali kirib kelgan va kollektor-drenaj tarmoqlaridan chiqib ketgan tuzlar; – Qoraqlpog'iston Respublikasi va viloyatlarda sug'orish uchun olingan suv, kollektor-drenaj tarmoq-laridan chiqqan suvning miqdori va mineralizatsiyasi; – kollektor-drenaj tarmoqlaridan chiqqan suv va uning qayta sug'orishga ishlatilishi ko'rsatkichi; – Qoraqlpog'iston Respublikasi va viloyatlarda kollektor-drenaj tarmoqlaridan (KDT) chiqib ketadigan suvlarni qayta ishlatilishi; – 2025-yilda sizot suvlari sathi muammoli (0–2 m) bo'lgan maydonlarning o'zgarishi; – Qoraqlpog'iston Respublikasi va viloyatlarda sug'oriladigan yer maydonlarini sizot suvlarininig joylashish sathi.